- yengil avtomobillar oldingi boshqariluvchi yetakchi ko‘priklarda qo‘llaniladi.



47-rasm. Olti zoldirli universal kardan sharniri (Lebro)

- ushbu sharnir Birfild sharnirining modifikatsiyasi;
- sharnir o'qi bo'ylab bir muncha siljish imkonini beradi;
- zoldirlar ariqchalari qiya kesilganligi natijasida yetakchi va yetaklanuvchi vallar orasidagi burchak o'zgarganda shu burchak bissektrisasida joylashadi;
 - yengil avtomobillar oldingi boshqariluvchi yetakchi ko'priklarda qo'llaniladi.



48-rasm:

“Ural” yuk avtomobili oldingi ko'prining kardan uzatmasi

a-umumiy ko'rinishi; b-sharnir detallari; 1,6-yarim o'qlar; 2-sapfa; 3-flanets; 4,7-vilkalar; 5,8-kulachoklar; 9-disk; 10-zoldrli tayach; 11-ship; 12-shina; 13-gupchak




Рис. 9.19. Передний ведущий мост четырехосного грузового автомобиля МАЗ: 1 — ведущий вал; 2 — карданный вал; 3 — промежуточный вал; 4 —

49-rasm. To'rt o'qli MAZ avtomobilining oldingi boshqariluvchi va yetaklovchi ko'prigi

6 -Topshiriq.

Bir nechta sinxron kardan sharnirlar chizmasini shakillantiring va izohlang.

Nazorat savollari:

1. Burchak tezliklari teng bo'lgan kardan sharnirlarining kinematikasi tushuntiring?
2. BIRFILD sharikli burchak tezliklari teng bo'lgan kardan sharnirini izohlang?

9 -AMALIY MASHG'ULOT.
DEFFERINSIALLARNI BLOKIROVKA TIZIMI BILAN TANISHISH.

Ishdan maqsad – Yengil avtomobillarning defferinsial blokirovka tizimi bilan tanishish

Foydalanadigan materiallar: Defferinsialning texnik tavsifi, , adabiyotlar, mavzu prezentatsiyalari va 9.1-vediolavhalar.

Nazorat savollari:


- 1.Defferinsial vazifasini ayting?
- 2.Defferinsial turlarini sanab bering?
- 3.Defferinsialni blokirovka tizimini tushuntiring?

10 -AMALIY MASHG‘ULOT. AVTOMOBILNING “ABS” TORMOZ BOSHQARMASINI URGANISH.

Ishdan maqsad –Zamonaviy avtomobilning “ABS” tormoz boshqarmasini urganish.

Foydalanadigan materiallar:

Avtomobillarning texnik tasnifi, adabiyotlar, mavzu prezentatsiyalari va 10-vediolavha



1 расм. АБТ тизимининг функционал модели.

Nazariy ma’lumotlar

Antiblokirovkali gidravlik tormoz tizimining ishlash prinsipi

Antiblokirovkali tormoz(ABT) tizimi tarkibiga asosan quyidagi elementlar kiradi:

1. G‘ildiraklarni aylanish tezligi datchigi (G‘D)
2. G‘ildiraklarning tormoz silindrlari (G‘TS)
3. Bosh tormoz silindri (BTS)
4. ABTT ning gidromodulatori
5. ABTT ning elektron boshqarish bloki(EBB)

Antiblokirovkali tormoz tizimining asosiy elementi gidromodulator bo‘lib, u quyidagi qismlardan iborat:

- gidravlik nasos;
- uchta teskari ta’sir qiluvchi reduksion klapanlar K_1, K_2, K_3 ;
- ikkita berkituvchi klapanlar K_4 va K_5 dan iborat uch holatli elektromagnitli gidroklapan (GK).

ABT tizimining ishlash prinsipini bitta g‘ildirakning tormozlanish rejimi misolida ko‘rish qulay bo‘ladi.

Tormozlanish rejimiga ko‘ra 5 ta vaziyat yuzaga kelishi mumkin:

1. «ABT tizimisiz tormozlash» rejimi

Bu holda:

a) $V_{tl} = V_a$

b) Tormoz pedali datchigi PD bosilishi bilan ABT tizimi ulanadi, lekin ishlamaydi, chunki g‘ildiraklarning aylanish tezligida farq yo‘q:

c) Tormoz suyuqligi BTS dan avval M kanalga, so‘ngra K_4 klapan orqali G‘TS ga uzatiladi. K_1 va K_3 klapanlar yopiq va ular L, N kanallarni berkitadi. K_5 klapan ham yopiq. Bu holda odatdagi tormozlanish jarayoni sodir bo‘ladi va unda ABT tizimi ishtirok etmaydi.

d) Tormoz pedali qo‘yib yuborilgandan keyin G‘TS dagi suyuqlikning teskari bosimi ta’sirida K_3 klapan ochiladi va tormoz suyuqligi BTS ga qaytib o‘tadi.

2. G‘TS da «bosimni pasayish» rejimi (ya’ni g‘ildiraklarning tormozlash kuchlari susayishi).

Bu rejim g‘ildirak datchigi G‘D dan EBB ga g‘ildirakning sekinlashganligi haqidagi (g‘ildiraklarning blokirovkaga yaqin bo‘lgan hol) C signal uzatilganda yuzaga keladi.

Bu holda

a) $V_a > V_{\tau l}$

b) C signal asosida ABT tizimining EBB «A» kontaktlarga $U_k = 10V$ kuchlanish uzatadi va bosh gidroklapaning elektrmagnit g‘altagi W orqali $\sim 5A$ tok o‘ta boshlaydi. Shu bilan bir vaqtda gidronasos N ning «B» kontaktiga 12V kuchlanish uzatiladi va gidronasos ishga tushadi.

c) Gidronasos N ning bosimi ta’sirida K1 va K2 klapanlar ochiladi. Bosh elektrgidroklapaning K5 klapan ham ochiladi. K4 klapan esa elektrmagnit g‘altak W ning ninasi ta’sirida yopiladi.

d) Yuqorida o‘tkazilgan amallar, tormoz suyuqligini G‘TS dan BTS ga qaytaruvchi kanalni ochadi: suyuqlik avval K5, so‘ngra K2 va K1 klapanlar orqali BTS ga qaytadi.

3. G‘TS da «bosimni ushlab» rejimi.

Bu rejim ABT tizimi avtomatik ravishda «bosimni pasayishi» rejimidan chiqqanda yuzaga keladi. Bu jarayon G‘D dan uzatilgan C signal bo‘yicha, yana $V_{\tau l} = V_a$ bo‘lganda sodir bo‘ladi.

a) ABT tizimining EBB «A» kontaktlarga $\sim 4 B$ kuchlanish uzatadi, elektrmagnit g‘altak W dagi tok 2A gacha kamayadi. «B» kontaktlarga 12V kuchlanish uzatilishi saqlanib qoladi va gidronasos N ishlashda davom etadi.

b) Elektrmagnit g‘altak W dagi tok 2A gacha kamayishi natijasida bosh elektrmagnit klapan ishchi klapanlar K4 va K5 ni berkitadi va G‘TS dagi tormoz suyuqligining barqaror bo‘lishini ta’minlaydi, chunki bu holda suyuqlik G‘TS da K3, K4, K5 klapanlar bilan yopib qo‘yilgan bo‘ladi.

4. G‘TS dagi «bosimni oshirish» rejimi.


Bu rejim G‘D dan EBB ga g‘ildirakni aylanish tezligi ortganligi haqidagi signal C uzatilganda, ya’ni $V_{\tau l} > V_a$ bo‘lganda yuzaga keladi.

a) C signal bo‘yicha ABT tizimining EBB «A» kontaktlarga uzatilayotgan tok zanjirini uzadi ($I_w = 0$), ammo 12V kuchlanish «B» kontaktlardan gidronasos N ga uzatilishi davom etadi va bosh gidroklapan K4 klapani ochadi, K5 klapani esa berkitadi.

b) G‘TS dagi bosim ortadi, chunki gidronasos N tormoz bakchasi B dan suyuqlikni K1, K2 va K4 klapanlari orqali G‘TS ga uzatadi.

5. Yuqorida ko‘rilgan 4 rejimini barchasida tormoz pedalining orqaga yurishida suyuqlik G‘TS ga teskari klapan K3 orqali qaytariladi. Tormoz pedali to‘la orqaga qaytganda chegaraviy o‘chirgich PD EBB ni o‘chiradi va ABT tizimining ishi to‘xtatiladi.

Bosch фирмасининг 2 авлод АБСи



1-датчик; 2-сигнал чироғи; 3-бошқариш блоки; 4-модулятор

Тормозланишнинг электрон бошқарув тизимлари



DSC - турғунликни таъминловчи тизим;

ABS - антиблокировкаловчи тизим;

HDC (Hill Descent Control) - қияликда автомобилни автоматик тормозловчи тизим;

ETS -шатаксирамасликни таъминловчи тизим;

CBC (Cornering Brake Control)- автомобил бурилишида тормоз кучларини бортлар бўйича тақсимловчи тизим;

EBD (Electronic Brake Distribution) –тормоз кучларини ўқларга электрон тақсимловчи тизим;

EBA (Electronic Brake Assist) - кескин тормозланиш тизими;

EPB (Electronic Parking Brake)- оддий электрон тўхтагиб туриш тормоз тизими;

APB (Automatic Parking Brake)- автоматик электрон тўхтагиб туриш тормоз тизими.

Nazorat savollari:

- 1.Тормозланish tizimining effektivligi nima?
- 2.Тормозланish tizimining ABS elektron boshqaruvini izohlang?
3. 1- rasmdagi chizmani yozma izohlang.

11- AMALIY MASHG‘ULOT.
**AVTOMOBILNING TORMOZ DINAMIKASIGA OID MASALALAR
ISHLASH.**

Ishdan maqsad - Avtomobilning tormoz dinamikasiga oid masalalar ishlash.

Foydalanadigan materiallar: 1.Kratkiy avtomobilniy spravochnik NIIAT. M. «Transport»-1983.

2.A.I.Proskurin, S.M.Qodirov. Avtomobil nazariyasi.(Misol va masalalar)
Toshkent.TAYI-2004

Tormozlanish paytida g‘ildiraklarning sirpanmaslik sharti.

$$R_{t \max} \leq \varphi Q_a;$$

Tormozlanish vaqtida sekinlanishning kattaligi.

$$j_T = \frac{g}{\delta_{a\underline{a}}} (P_T + \sum P)$$

Bu yerda: R_t - tormozlovchi kuch

$\delta_{a\underline{a}}$ -dvigatelning aylanib ishlovchi detallari masalalarini hisobga oluvchi koeffitsiyenti.

Avtomobilning to‘la tormozlanish vaqti.

$$t_u = \frac{g_a}{g\varphi}$$

Tormozlanish vaqtida xarakatga qarshilik qiluvchi kuchlar.

$$P_r + P_f + P_i + P_{xi}$$

Sekinlashishning maksimal qiymati

$$j_{\max} = \frac{g}{\delta_{a\underline{a}}} \left(\varphi + \varphi + \frac{P_u}{Q} \right)$$

Tormoz yo‘li

$$S_T = g_a (t_1 + t_2 + t_3) + \frac{K g_a^2}{2 g \varphi}$$

g‘ildiraklarning yo‘l bilan tishlashish sharti bo‘yicha maqsadga muvofiq eng katta tormoz kuchi.

$$P_T = m_n \cdot g \cdot \cos \alpha \cdot \varphi N$$

Masala–1. Harakatsiz turgan avtomobilning oldingi o‘qiga 10000 N, ketingi o‘qiga 20000 N og‘irlik kuchi to‘g‘ri keladi. Tishlashish koeffitsiyenti 0,6 deb qabul qilinsa, o‘qlardagi tormozlanish kuchlari topilsin.

$$G_1 = 10000N$$

$$R_{T \text{ old}} = G_1 \cdot \varphi = 10000 \times 0,6 = 6000N$$

$$G_2 = 20000N$$

$$R_{T \text{ ket}} = G_2 \cdot \varphi = 20000 \times 0,6 = 12000N$$

Masala–2. Og‘irlik markazidan avtomobilning oldingi o‘qigacha bo‘lgan oraliq 1,1m keyingi o‘qigacha bo‘lgan oraliq 1,3 m og‘irlik markazining balandligi 0,5 m,

solishtirma tormozlanish kuchi 0,6 bo'lgan xarakatdagi avtomobil tormozlanish kuchlarining qayta taqsimlanish koeffitsiyentlari aniqlansin.

$$l_1 = 1,3 \text{ m}$$

$$l_2 = 1,1 \text{ m}$$

$$\beta_{T1} = v + \gamma_{mop} h_g / L = 1,3 + 0,6 \times 0,5 / 2,4 = 0,667$$

$$h_g = 0,5 \text{ m}$$

$$\gamma_{mop} = 0,6$$

$$\beta_{T2} = v + \gamma_{mop} h_g / L = 1,1 + 0,6 \times 0,5 / 2,4 = 0,334$$

$$L = 2,4 \text{ m}$$

Masala-3. Tishlashish koeffisinti 0,65 yulning umumiy qarshilik koeffisinti 0,18, solishtirma tormozlanish effektivligining ekspluatatsion koeffitsinti 1,2. 70 km.soat tezlik bilan xarakatlanayotgan avtomobilning tormozlanish vaqti va masofasini aniqlang.

$$\varphi = 0,65 \quad t = V \cdot K / 3,6 \cdot g \cdot \varphi = 70 \times 1,2 / 3,6 \times 9,8 \times 0,65 = 3,6 \text{ s.}$$

$$\psi = 0,18$$

$$s_{or} = 0,52 \quad S = V \cdot K / 26 \cdot g (\gamma + \psi) = 70^2 \times 1,2 / 26 \times 9,8 (0,52 + 0,18) = 3,3 \text{ m}$$

$$K_e = 1,2$$

$$V_a = 70 \text{ km/soat.}$$

7 -Topshiriq.

Variant bo'yicha masalani ishleng.

Variant	1	2	3	4	5	6	7	8	9
γ_{tor}	0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9
$G_1 \text{ N}$	5000	7000	8000	9000	10600	11000	12000	13000	14000
$G_2 \text{ N}$	15000	17000	18000	19000	21000	22000	23000	24000	25000
$a, \text{ m}$	0,8	0,85	0,9	0,98	1,0	1,05	1,15	1,18	1,2
$v, \text{ m}$	0,9	1,1	1,15	1,18	1,2	1,22	1,35	1,4	1,5
$h_g, \text{ m}$	0,4	0,44	0,48	0,52	0,56	0,6	0,64	0,68	0,7
$V_a, \text{ km/s}$	55	60	65	70	75	80	85	88	90
Φ	0,43	0,48	0,52	0,56	0,6	0,62	0,67	0,71	0,74
Ψ	0,11	0,13	0,14	0,15	0,16	0,17	0,19	0,21	0,23

Variant	10	11	12	13	14	15	16	17	18
γ_{tor}	1,0	1,1	1,2	1,3	1,4	1,5	1,6	1,7	1,8
$G_1 \text{ N}$	1000	2000	3000	4000	5000	6000	7000	8000	9000
$G_2 \text{ N}$	1000	11000	12000	13000	14000	15000	16000	17000	18000
$a, \text{ m}$	0,8	0,85	0,9	0,98	1,0	1,05	1,15	1,18	1,2
$v, \text{ m}$	0,9	1,1	1,15	1,18	1,2	1,22	1,35	1,4	1,5
$h_g, \text{ m}$	0,4	0,44	0,48	0,52	0,56	0,6	0,64	0,68	0,7
$V_a, \text{ km/s}$	50	55	63	73	76	80	83	85	96
Φ	0,43	0,48	0,52	0,56	0,6	0,62	0,67	0,71	0,74
Ψ	0,11	0,13	0,14	0,15	0,16	0,17	0,19	0,21	0,23

Variant	19	20	21	22	23	24	25	26	27
γ_{tor}	1,9	2,0	1,9	1,2	1,3	1,4	1,5	1,6	1,7

G_1 N	19000	20000	21000	22000	23000	24000	25000	26000	27000
G_2 N	28000	29000	30000	31000	32000	33000	34000	35000	36000
a , m	0,8	0,85	0,9	0,98	1,0	1,05	1,15	1,18	1,2
v , m	0,9	1,1	1,15	1,18	1,2	1,22	1,35	1,4	1,5
h_g , m	0,4	0,44	0,48	0,52	0,56	0,6	0,64	0,68	0,7
V_a , km/s	52	62	65	72	78	82	83	87	92
Φ	0,43	0,48	0,52	0,56	0,6	0,62	0,67	0,71	0,74
Ψ	0,11	0,13	0,14	0,15	0,16	0,17	0,19	0,21	0,23

Nazorat savollari

1. Tormozlanish xususiyatlarining o'lchamlari nima bilan va qanday aniqlanadi?
1. Tormozlanish davrida qanday koeffisintlar o'zgaradi?
2. Tormozlanish vaqti deb nimaga aytiladi?
3. Tormozlanish yo'li deb nimaga aytiladi?

12- AMALIY MASHG'ULOT.


ELEKTROMOBILLAR TUZILISHI BILAN TANISHISH.

Ishdan maqsad - Haydovchisiz boshqariladigan transport vositalarining istiqbollari bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Foydalanadigan materiallar: Elektromobillarning texnik tasnifi, adabiyotlar, mavzu prezentasiyalari, 12-vediolavha

Nazary ma'lumotlar

Elektromobillarning sanab o'tilgan kamchiliklari qaysidir ma'noda gibrid kuch qurilmalari yordamida o'z yechimini topmoqda. Gibrid kuch qurilmalari elektrik tizim bilan boshqariladigan zamonaviy benzinli dvigatel va elektromotorlarning birgalikda juftligidir. Bunday juftlik mashinaning harakat rejimlari bilan mos ravishda energiya sarfini rostdash imkonini beradi.



Gibrid kuch qurilmalari

Gibrid kuch qurilmalarining asosiy vazifalari quyidagilar:


- tormozlashda hosil boʻladigan energiyaning bir qismi elektr tokiga, qolgani esa issiqlikka aylantirish hisobiga energiyani tejash. Boshqa turdagi avtomobillarda tormozlash energiyasi 100% issiqlikka aylanadi;
- avtomobil zamonaviy energiya sarfini boshqarish tizimi bilan jixozlanadi;
- avtomobilning tashkil etuvchi qismlari massasi va gabaritlarining kamayishiga erishiladi.

Gibrid kuch qurilmalarining ishlashi


Avtomobil harakatni boshlashganda va kichik tezliklarda harakatlanganda faqat elektromotorlar ishlaydi. Keyinchalik, tezlik oritishi jarayonida va odatish harakat rejimlarida elektromotorlar bilan birga benzinli dvigatel ham ishlaydi (rasm).

Dvigatelning quvvati gʻildiraklarni harakatga keltiruvchi elektromotorlar, hamda generator orasida taqsimlanib, generator barareyalarni zaryadlab turadi. Tezlashish paytida esa dvigatelning quvvati batareyalarning energiyasi bilan toʻldirib boriladi.

Tormozlash vaqtida elektrmotorlar generator vazifasini bajarib batareyalarni qayta zaryadlaydi. Toʻxtaganda dvigatel avtomatik tarzda oʻchadi.



Toyotagibrid avtomobilining shassisi



Daimler Chrysler kompaniyasining gibrid avtomobili transmissiyasi sxemasi

Gibrid kuch qurilmalarining asosiy tashkil etuvchilari

Gibrid uzatmalar qutisi ham benzinli ham elektr dvigatellarini nazorat qilib, quvvatni kerakli yoʻnalishga yoʻnaltirish imkonini beradi.

Ichki yonuv dvigateli yuqori tezliklarni taʼminlab beradi, **elektrodvигatellar** esa qoʻshimcha quvvatni beradi. Elektrodvигatel-larning qoʻllanilishi maʼlum maʼnoda yonilgʻini tejaydi va atmosferani zaharlashni kamaytiradi. Ular bir birini toʻldirgan holda rasional rejimda ishlaydi. Shunday boʻlsada, yuqori samarali va tejamkor benzinli IYOD gibrid kuch qurilmalarining asosiy energiya manbasi hisoblanadi.

Qurilmaning yuqori kuchlanishli elektrodvигateli kichik oʻlchamli, elektromotor va elektrogeneratorning murakkab kompleksi boʻlib, avtomobilni ravon tezlashish imkoniyatini beradi.

Energiyani taqsimlovchi asosiy komponent planetar mexanizm boʻlib, benzinli dvigatel, elektromotor va generatorlarning birgalikdagi ishini taʼminlab beradi.

Energetik markaz gibrid qurilmaning energiya sarfini nazorat qilish, energiyani batareyalarda saqlash, zaryadlash kabi ishlarni bajaradi.

Invertor oʻzgarmas tokni oʻzgaruvchan tokka aylantirib, elektromotorlarni taʼminlaydi.

Gibrid avtomobillarning baʼzi afzalliklarini koʻrib chiqamiz:

- Yonilgʻi va energetik resurslarni tejash (kamida 20%). Shuningdek elektromotor mustaqil tarzda energiya ishlab chiqara oladi.
- Klassik avtomobillarga nisbatan gibridlar ekologiyaga ancha kam zarar yetkazadi.
- Odatiy benzinli dvigatellarga nisbatan uzoq masofani bosib oʻtadi.
- Gibridlarning akkumulyator batareyalari elektromobillarga nisbatan ancha yengil va ishlatishga qulay.
- Elektrodvигatel deyarli shovqinsiz ishlaydi.
- Gibrid avtomobil shahar sharoitida IYODsiz harakatlanishi mumkin.

Biroq gibridlar quyidagi kamchiliklardan holi emas:

- Elektrovigatellar akkumulyatorlari doim ishlatib turilishi kerak, aks holda ularning xizmat muddati qisqaradi. Bundan tashqari, ular o'z holicha zaryadsizlanishi mumkin va keskin harorat pasayinini ko'tara olmaydi. Ularni utilizasiya qilish muammosi bor.

- Dvigatelning konstruksiyasi murakkabligi unga xizmat ko'rsatishni qiyinlashtiradi va qimmat. Ehtiyot qismlarni topish qiyin.

- Gibridd avtomobillarning narxi o'rtadan ancha qimmat.

Shunga qaramasdan gibridd avtomobillarni ishlab chiqarish rivojlanmoqda va doimiy takomillashtirib borilmoqda.

8-Topshiriq.

Bir nechta elektromobillarning texnik tasnifini keltiring

№	Ko'rsatkichlar	Tesla	Toyota	?	?	?
16.	Kuzov tipi					
17.	Eshiklar soni					
18.	O'rindig'i					
19.	Og'irligi					
20.	Quvvati					
21.	Tezligi					
22.	Zaxira energiyasi					
23.	O'lchami					
24.						
25.						

Nazorat savollari:

1. Elektromobillar qaysi elementlardan tashkil topgan.
2. Elektromobil elementlarini izohlab bering.
3. Elektromobillarning asosiy kamchiliklarini ayting.

13- AMALIY MASHG'ULOT.

ZAMONAVIY AVTOMOBILLARGA O'RNATILADIGAN ELEKTRON TIZIMLARINING VAZIFALARI VA ULARNING QISQARTMA SHAKLDA BELGILANISHI BILAN TANISHISH.

Ishdan maqsad -avtomobilga o'rnatiladigan elektron tizimlarning turlarini va qisqartma shaklda belgilanishini o'rganish.

Hozirgi zamon transport vositalari (xususan avtomobillar) ko'plab turdagi elektron tizimlar bilan ajralib turadi.

1. **AVS** - Active Body Control (Angl.) – Osmani boshqaruvchi faol tizim
2. **ABS** - Anti-Blocking System (Angl.) - Anti-blokirovka tizimi
3. **ASS** - Adaptive cruise control (Angl.) – Adaptiv kruiz-nazorat

4. **AFS** - Active Front Steering, **ESAS** - Electric Steer Assisted Steering - (Angl.) – Faol rul boshqaruvi
5. **APC** - Automatic Performance Control – Motor ishini boshqaruvchi tizim (yonilg‘i tarkibi, o‘t oldirish momenti)
6. **ASR** - Antriebs-Schlupf-Regelung (Nem.), **TCS** - Traction Control System (Angl.) – Shataksirashga qarshi tizim
7. **AVL** - Automatic Vehicle Location system (Angl.) – Transport vositasining turgan joyini avtomatik aniqlash tizimi
8. **AWD** - All Wheel Drive – to‘liq yuritma (odatda doimiy ulangan yoki vaqti-vaqti bilan ulab turiladigan)
9. **BAS, VA** - Brake Assist System, **RA, RAVS** (Angl.) – Tormozashga yordam beruvchi tizim (tormoz assistenti)
10. **CAN** -Controller Area Network (Angl.) – Avtomobil nazoratchilari ma’lumot tarmog‘i
11. **SSM** - Component monitor - (Angl.) – Motorni bortli diagnostlash komponentlari monitorlari
12. **CDC** - Continuous Damping Control (Angl.) – Uzluksiz roslash pnevmatik osmasi
13. **CFI** - Central Fuel Injection – Markaziy purkash
14. **CPU** - Central Processing Unit - (Angl.) – Elektron boshqaruv blogi
15. **CRS** - Sommon Rail System - (Angl.) – Yig‘ib turuvchi (akkumuliruyushiy) yonilg‘i tizimi
16. **CVT** - Continous Variable Transmission (Angl.) – Pog‘anasiz transmissiya
17. **DBC** - Dynamic Brake Control (Angl.) – Tormozlashni dinamik nazorat qilish tizimi
18. **DE** - Diagnostic Executive (Angl.) – Motorni bortli diagnostlash
19. **DI** - Direct Injection (Angl.) – Bevosita purkash, yonilg‘ini bevosita yonish kamerasiga purkash
20. **DLC** - Data Link COnnector (Angl.) – Ajraluvchi diagnostlash tizimi
21. **DOHC** - Double Over Nead Camshaft – Yuqoriga joylashgan ikkita taqimlash valli gaz taqsimlash mexanizmi
22. **DSC** - Dynamic System Control, **VDC** - Vehicle Dynamic Control (Angl.) – Avtomobil harakatini dinamik sozlab turish tizimi
23. **Dynamic Drive** (Angl.) –Ko‘ndalang turg‘unlik stabilizatorlarini boshqarish tizimi
24. **EBD** - Electronic brake distribution (Angl.), **EBV** - Elektronen Bremse Variation (Nem.)-Tormoz kuchlarini taqsimlash elektron tizimi
25. **EBS** (Angl.) - Elektron-pnevmatik tormoz tizimi (Yuk avtomobillarida)
26. **ECU** - Electronic Control Unit, (Angl.) – Elektron boshqarish blogi
27. **EDC, EDS** - Electronic Diesel Control (Angl.) – Dizelni elektron boshqarish
28. **EDS** - Elektronen Differential System (Angl.) – Elektron differensial tizimi
29. **EFI** - Electronic Fuel Injection – elektron purkash (taqsimlangan) tizimi
30. **YENV** - Electronic hydraulic Braking (Angl.) – Elektrogidravlik tormoz tizimi
31. **EGR** - Exhaust Gas Recirculation (Angl.) – Ishlatilgan gazlar retsirkulyatsiya qilish tizimi
32. **YEMV** - Electromechanical Braking (Angl.) – Elektro-mexanik tormoz tizimi
33. **YEMM** - Emission monitor - (Angl.) – Motorni bortli diagnostlashda ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish monitori
34. **EOBD** - Yeuroreap On Board Diagnostic - (Angl.) – Yevropa bortli diagnostlash tizimi

35. **EPAS** - Electric Power Assisted Steering (Angl.) – Yordamchi elektr kuchaytirgichli rul boshqaruvi.
36. **YERV** - Electronic Pressure Braking (Angl.) – Elektro-pnevmatik tormoz tizimi
37. **EPS** - Electrical Power Steering, **MDPS** - Motor Driver Power Steering - (Angl.) – Elektr kuchaytirgichli rul boshqaruvi.
38. **ESP, VDC, VSC, DSC** - Electronic stability programme) (Angl.) – Avtomobil harakatini stabillashtirish elektron dasturi
39. **ETCS, YETS**- Electronic throttle control system (Angl.) – Droselli to‘siq holatini boshqari elektron tizimi
40. **FSI** - Fuel Stratified Injection (Angl.) – Yonilg‘ini qatlamlab purkash
41. **FWD** - Front-Wheel Drive – Old yuritma
42. **GDI** - Gasoline direct injection (Angl.) – Benzinni bevositi purkash
43. **GPS** - Global Positioning Satelite (Angl.) – Global pozitsiyalash tizimi
44. **NAN**- Handbrake with Automatic Hold (Angl.) – Avtomatik funksiyali turg‘unlik tormozi
45. **HVD** - Head Up Display (Angl.) – Old oynada ma’lumotni ko‘rsatish
46. **IC** - Integrated circuit (Angl.) – Integral mikrosxema
47. **ITS** - Intelligent Transportation System (Angl.) - Intellektual transport tizimi **ITS** - Integrated Tubular Sidebag (Angl.) – Yon tomonga o‘rnatilgan xavfsizlik yostiqlari tizimi
48. **K-Line** (Angl.) – Tashxislanayotgan avtomobil elektron tizimi va tekshirilayotgan pribor o‘rtasida ikki tomonlama aloqa tarmog‘i
49. **LIN** - (Local Interconnect Network) (Angl.) – Avtomobilni nazorat qilgichlar lokal ma’lumot tarmog‘i
50. **LH-Jetronic** - Elektr. Einspritzsystem mit Hitzdraht- Luftmassenmesser (Nem.) – Havoni og‘irlik bo‘yicha sarflash datchikli puflash elektron tizimi
51. **LPT** - Light Pressure Turbo – Past bosimli turbo-purkagich
52. **MED -Motronic** (Nem.) – Yonishni va silindrga yonilg‘ini bevosita purkashni boshqarish mikroprotessorli tizimi
53. **MIL**-Malfunction Indicator Lamp (Angl.) – Nosozlik indikator
54. **OBD** - OnVoard Diagnostic (Angl.) –Bortli tashxislash
55. **PMD** - Photonic Mixer Devices (Angl.) – Haydovchi ko‘rish sohasini fotometrik kengaytirish tizimi
56. **PRS** - Programmed Restraint System (Angl.) – Dasturlashtirilgan himoya tizimi
57. **RWD** - Rear-Wheel Drive –Orqa yuritmal
58. **SAE** - Society of Automotive Engineers (Angl.) –Xalqari avtomobil muhandislari jamiyati
59. **SBC** - Sensotronic Brake Control, **EBS** - Electronic Braking System (Angl.) – Elektrontormoz tizimim
60. **SGI** - Sequential Gas Injection, **GSI**-Gaseous Sequential Injection (Angl.) – Gaz holatidagi yonilg‘ini taqimlangan holda purkash tizimi
61. **SH-AWD** Super handling All-Wheyl Drive system (Angl.) –O‘zgaruvchan boshqaruvchanlikka ega to‘liq yuritmal tizim

62. **SIPS** - Side Impact Protection System –Yon tomonlama zarbadan himoyalash tizimi
SRS - Supplementary Restraint System (Angl.) – Xavfsizlik yostiqcha va tasmalari tizimi
63. **Steptronic, SensoDrive** (Angl.) –Elektron boshqaruvli mexanik uzatmalar qutisi
64. **TCS** - Traction Control System –tortib yurishni boshqarish tizimi (antibuksovochnaya)
65. **TDC** - Top Dead Center – Yuqori chekka nuqta (YUCHT)
66. **VAG** - Volkswagen Audi Group (Angl.) - Audi, Folksvagen ishlab chiqaruvchilar guruhi
67. **VC** - Visocous Coupling – Qovushqoqlik hisobiga ishlovchi mufta
68. **VTEC** - Variable Value Timing and Lift Electronic Control (Angl.) – klapanlar o‘zgaruvchan faza va ko‘tarilishlarini elektron boshqarish
69. **VVA** -Variable Value Actuation - (Angl.) – Motor klapanlarini nopog‘anaviy boshqarish
70. **VVT-i** - Value variable timing-intelligent (Angl.) –O‘zgartiriladigan fazali gaz taqsimlash tizimi
71. **VIN** - Vehicle Identification Number –Transport vositasi identifikatsiya raqami
72. **4WD** - 4 Wheel Drive – To‘liq yuritmal (odatda qo‘d yordamida ishga tushiriladigan to‘liq yuritmal)
73. **AKB** (Rus.) - Akkumulyatornaya batareya - Akkumulyator batareyasi
74. **AKP** (Rus.) – Avtomaticheskaya korobka peredach - Avtomatik uzatmalar qutisi
75. **AMK, BK** (Rus.) – Avtomobilniy marshrutniy kompyuter - Avtomobil yo‘nalish kompyuteri
76. **ASP** (Rus.) – Analogo-sifrovoy preobrazovatel -Analog-raqamli o‘zgartirgich
77. **BCK** (Rus.) – Bortovaya sistema kontrolya - Bortli nazorat tizimi
78. **BTSZ** (Rus.) – Beskontaktnaya tranzistornaya sistema zajiganiya -Kontaktsiz o‘t oldirish tizimi
79. **DVS** (Rus.) - Dvigatel vnutrennego sgoraniya - IYOD-ichki yonuv dvigateli
80. **DD** (Rus.) – Detonatsiya datchigi- Datchik detonatsii
81. **DKK, DK** (Rus.) – Datchik konsentratsii kislroda-Kislrodni konsentratsiyalash datchigi
82. **DMRV** (Rus.) – Datchik massovogo rasxoda vozduxa- Havoni massa bo‘yicha sarflash datchigi
83. **DPDZ** (Rus.) – Datchik polojeniya drosselnoy zaslonki -Drosselli to‘siq holatini ko‘rsatuvchi datchik
84. **DPKV** (Rus.) – Datchik polojeniya kolenchatogo vala -Tirsakli val holatini ko‘rsatuvchi datchik
85. **DS** (Rus.) – Datchik skorosti -Tezlik datchigi
86. **DTV** (Rus.) – Datchik temperaturi vozduxa na vpuske- Kiritishda havo haroratini ko‘rsatuvchi datchik
87. **DTOJ** (Rus.) Datchik temperaturi oxlajdayushey jidkosti –Sovutish suyuqligi haroratini ko‘rsatuvchi datchik
88. **IS** (Rus.) - Integralniye mikrosxemi-Integral mikrosxemalar
89. **ISAD** (Rus.) - Integrirrovanniy starter-alternator (generator - dempfer)
Integrallashtirilgan starter – alternator (generator – dempfer)

90. **KIP** (Rus.) - Kontrolno-izmeritelnaya panel priborov-Priborlarning nazorat-o‘lchov taxtachasi
91. **KORZ** (Rus.) - Kompleks operativnogo roziska i zaderjaniya-Operativ qidiruv va qo‘lga olish majmuasi
92. **MP** (Rus.) – Mikroprotssessor - Mikroprotssessor
93. **MSZ, MPSZ** (Rus.) - Mikroprotsessornaya sistema zajiganiya – Mikroprotssessorli o‘t oldirish tizimi
94. **MSUD** (Rus.) - Mikroprosessornaya sistema upravleniya dvigatelem-Motorni mikroprossessorli boshqarish tizimi
95. **OZU** (Rus.) - Operativnoye zapominayusheye ustroystvo-Operativ xotirada saqlash qurilmasi
96. **OMP** (Rus.) - Opredeleniye mestopolojeniya-Joylashish holatini aniqlash
97. **PZU** (Rus.) - Postoyannoye zapominayusheye ustroystvo-Doimiy xotirada saqlash qurilmasi
98. **RDV** (Rus.) - Regulyator dobavochnogo vozduxa-Qo‘shimcha havoni rostlagich
99. **RN** (Rus.) - Regulyator napryajeniya-Kuchlanishni rostlagich
100. **RXX** (Rus.) - Regulyator xolostogo xoda-Salt yurish rostlagichi
101. **TV-smes** (Rus.) - Toplivno-vozdushnaya smes-Yonilg‘i-havo aralashmasi
102. **TNVD** (Rus.) - Toplivniy nasos visokogo davleniya-Yuqori bosimli yonilg‘i nasosi
103. **EBN** (Rus.) – Elektrobzonasos- Elektr bzonasos
104. **EBU** (Rus.) - Elektronniy blok upravleniya –Elektron boshqaruv blogi
105. **ESAU-D** (Rus.) - Elektronnaya sistema avtomaticheskogo upravleniya dvigatelem-Motorni avtomatik boshqarish elektron tizimi
106. **ESZ** (Rus.) - Elektronnaya sistema zajiganiya-Elektron o‘t oldirish tizimi
107. **ESUD** (Rus.) - Elektronnaya sistema upravleniya dvigatelem- Motorni boshqarish elektron tizimi

Nazorat savollari:

1. DONS VA SONS larni izohlang.
2. Analog-raqamli o‘zgartirgich nima.
3. Hozirda zamonaviy avtomobillarda uchraydigan elektron tizimlarni ko‘rsating va izohlang.

FOYDALANILADIGAN ASOSIY DARSLIKLAR VA O‘QUV QO‘LLANMALAR RO‘YXATI

Asosiy

1. Qodirxonov M.O. Avtomobillarning ish jarayoni va hisoblash asoslari. Toshkent-2004
2. Fayzullayev E.Z. tahriri ostida. Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi. Toshkent-2005
3. A.Muhiddinov, V.Sottivaldiyev, SH.Xakimov. Transport vositalarining tuzilishi. Toshkent-2014
4. Mahmudov G‘.N. Avtomobillarning elektr va elektron jihozlari. Noshir, 2 chi nashr. Toshkent, 2011y. 304 bet.

Qo‘shimcha

1. Y.Raympel. Shassi avtomobiliy. Konstruksii podvesok. Perevod s nem. V.P. Agapova. M. “Mashinostroyeniye”-1989
2. A.I.Proskurin, S.M.Qodirov. Avtomobil nazariyasi.(Misol va masalalar) Toshkent.TAYI-2004
3. Yutt V.YE. Elektrooborudovaniye avtomobiley. Moskva, Transport, 2006 g.
4. NeksiY. UzDAEWOOAUTO. Prospekt. Asaka.- UzDEUavto.-2005.
5. Lasetti. UzDAEWOOAUTO. Prospekt. Asaka.-UzDEUavto.-2005.
6. Kenneth Stafford. Alternative Fuels for Automobiles. 2008.
7. RichardFolkson, Alternative Fuels and Advanced Vehicle Technologies for Improved Environmental Performance. Woodhead Publishing Limited, 2015.
8. /<https://ru.wikipedia.org>